



INOBAT IMANKULOVA



SENOGRAFIYA VA LIBOS TARIXI


o'quv-uslubiy qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

INOBAT IMANKULOVA

**SENOGRAFIYA VA LIBOSLAR
TARIXI**

(Senograf Shuhrat Abdumalikov ijodiy faoliyati)
o'quv-uslubiy qo'llanma



TOSHKENT – 2021

UO'K: 724.28.448

KBK: 85.36(Үзб)

I.Imankulova, «SENOGRAFIYA VA LIBOS TARIXI»

o'quv-uslubiy qo'llanma – T.: «Fan ziyosi» нашр. 2021. 64 б.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma respublikaning taniqli teatr va dekoratsiya san'ati ustalaridan biri - O'zbekistonda xizmat ko'satgan san'at arbobi professor Shuhrat Abdumalikovning ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan. Muallif senografining ijodiy biografiyasining asosiy bosqichlarini mustaqillik yillarda O'zbekistonning yetakchi teatrlarida namoyish etilgan spektakllar misolida yoritgan.

Mas'ul muharrir:

G'ofurov M.K

- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor v.b.

Taqrizchilar:

Toshkenbayev P.E.

- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San'at nazariyasi va tarixi” kafedrasi mudiri, san'atshunoslik fanlari nomzodi

Muxtorov I.A.

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San'atshunoslik instituti “Teatr va xoreografiya” bo'limi boshlig'i, san'atshunoslik doktori

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Ilmiy kengashining 2020 yil 29 oktabrdagi yig'ilishi qarori (3-sonli bayonnomai) bilan nashrnga tavsiya etilgan.

© I. Imankulova

ISBN 978-9943-708 - 93-8

© «Fan ziyosi» нашриёти, 2021

SENOGRAF SHUHRAT ABDUMALIKOV IJODIY FAOLIYATI



**“Behili tushlar” spektakliga eskiz. T.Zulfiqorovning
“Nasriddinning birinchi muhabbat” poemasi asosida.**

Sahnada uzoq tepaliklardan ko‘zachalardan bir-biriga tushib, oqib kelayotgan suv, poyasi yo‘q havoda muallaq turgan daraxt, faktura rang... barchasi o‘zgacha olam. Unda o‘tmish va davr, makon va zamon, murakkab va ziddiyatlarga boy muhit, inson ruhiyatiga o‘zgacha kayfiyat, his bera oluvchi holat mavjud. Xalq amaliy san’ati, ularning ham eng qadimiylari va oddiy, qo‘lda ishlangan, tabiiy buyum-narsalardan iborat kichik bir sahna. Betakror va hayratomuz.¹


Har bir teatr tomoshasining faol qatnashchisi har doim rassom bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi, rassom-tasviriy san’at boshlovchisidir.²

Ijodiy jarayonda beqaror, tinimsiz izlanuvchan teatr rassomi Shuhrat Abdumalikovning san’at olamiga kirib kelishi oddiy boshlandi. 1970-yilda Samarqand shahrida dunyoga kelgan rassom o‘rta mакtabni tamomlagach, 1989-yilda P.P.Benkov nomidagi rassomlik bilim yurtini, 1995-yilda Toshkent teatr rassomlik san’ati instituti, hozirgi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutini G.Brim ustaxonasida

¹.Imankulova Teatr rassomi Shuhrat Abdumalikov TEATR jurnali,2004/3

². Островский М. Художник и театр. - М.: Сов.худ, 1965.

tugatgan. 1993 yilda sahnalashtirgan Ch.Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” qissasi asosida yaratilgan spektaklga sahna bezagini ishladi. Bu vaqtida Sh.Abdumalikov institutning 4-kurs talabasi edi. Ushbu spektakl premerasiga kelgan ustozи Georgiy Brim shogirdini – “Mana endi O‘zbekistonda yangi bir teatr rassomi tug‘ildi” deya tabrikladi. G.Yu.Brim iste’dodi bor talabasini mustaqil fikrlashga o‘rgatar, faqat o‘zini takrorlab o‘tishini istamasdi, yangi bir yo‘nalishga boshlardi. Bu haqda Sh.Abdumalikov ustozini xotirlab, shunday deydi:



Shuhrat Abdumalikov ish jarayonida

“Institutda o‘qish bilan birga Yoshlar teatrda rassom vazifasini bajardim. O‘sha paytda ishlagan sahna bezagimi, eskizlarmi, maketlarmi, hattoki matoni bezash bilan dekoratsiyalar ishlaganidanmi, ustozim G.Brim “Mening yo‘limdan borib, meni takrorlabsan” – deb, bir xil fikr bildirardi, men bundan quvonardim. Ustozimning maqsadini keyinroq anglab yetdim. U mening yangicha yo‘nalishda ishlashimni, yangicha fikrlashimni istagan ekan. Uning bu orzusi “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” spektakliga ishlagan debyut ishimda amalga oshdi. Shundan so‘ng men o‘z yo‘limni topganligimni angladim.³

³ Muallifning rassom Sh.Abdumalikov ustaxonasidagi suhbatidan. 2003 yil noyabr.



“Sohil yoqalab chopayotgan olapar” spektakli eskizi

Shuhrat Abdumalikov ko‘plab spektakllar uchun ishlagan sahna bezaklari nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlarda ham o‘z tomoshabinini topdi. “Shuhrat Abdumalikovning debyut ishi - Chingiz Aytmatovning “Sohil yoqalab chopayotgan olapar” asari asosida ishlangan spektaklga ishlagan senografiyasi rejissyor Rimma Kashayeva bilan hamkorlikda 1993-yili Rus yosh tomoshabinlar (hozirgi Yoshlar teatri)da sahnaga ko‘yilgan. Ushbu spektakl obrazlarning timsollashtirilishi va undagi plastik harakatlар orqali ramzlarni yaratish bilan e’tiborli.

Sahnada katta dengiz va unda suzib borayotgan katta qayiq manzarasi paydo bo‘ladi. Buni rassom Sh.Abdumalikov sahna ortidan oldigacha uzun o‘n-o‘n besh metrli qayiqni joylashtiradi. Uning ichida odamlar, spektakl qahramonlari bor. Sahnada esa moviy - oqish yashil aralash rangdagi liboslarni kiyib, harakatlari orqali dengiz ko‘rinishini jonlantirayotgan aktyorlar. Qayiqning orqasida osmon va unda nur sochib qayikqa to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatayotgan yulduzlar tasvirlangan.

Spektakldagi voqealarning rivojiga qarab sahnadagi ulkan dengiz mavjlanadi, to‘lqinlanadi. Dengizning o‘zgarishi aktyorlarning plastik harakatlari orqali yuzaga keladi. Spektakldagi dengiz obrazini yaratayotgan aktyorlarga tanlangan liboslar va ularning rangi to‘g‘ri tanlanganligi bilan ham muvaffaqiyat qozongan bo‘lsa ajab emas. Sababi

- dengizning to‘lib toshishi, katta to‘lqinlarni hosil qilishi va mana shu harakatlarda jonli obrazning yuzaga kelishida liboslardagi ranglarning o‘rnini katta. To‘lqinlangan dengizdagi ko‘piklarning oq rangi, tiniq tinchgina mavjlanayotgan dengizning ko‘kish yashil rangi o‘z o‘rnida qo‘llanilganligi, aktyorlarning o‘z vaqtida joylarini tanlay bilishi orqali ifodalananadi. Spektakl davomida sahna ko‘rinishi o‘zgarmasa ham tomoshabin zerikmaydi. Dengizning o‘zgarishlari, voqealar rivoji, qayiqdagagi odamlarning birin-ketin dengiz qa‘riga singib ketishi tomoshabinni sahnadan ko‘z uzmay tomosha qilishga undaydi.



“Chingizxonning oq buluti” (Ч.Айтматов асари) spetakli maketi



“Alpomishning qaytishi” (Усмон Азим) spektakli eskizi

Ushbu spektaklga ishlangan sahna bezagi o‘zbek senografiya san’atida 1993 yili badiiy obrazlarning yechimi yangicha talqin topganligi bilan o‘ziga xos burilish yasadi desa bo‘ladi. Sahnada aktyorlarning plastik harakatlari orqali obrazlar yaratish, obraz harakterini, spektakl mohiyatini ana shu tarzda tasvirlab berish boshlandi. O‘ziga xos yangicha talqinda ishlangan bu va shunga o‘xhash sahna bezaklariga rejissyorlar tomonidan e’tibor kuchaydi.

1996 yili Qirg‘izistonning Bishkek drama teatrida G.Andersonning “Andersonni o‘ynaymiz” spektaklini rejissyor Bekpo‘lat Parmonov bilan hamkorlikda sahnalashtirdi. Qozog‘istonda 2001 yili Jettisoy drama teatrida rejissyor Valijon Umarov bilan ishlangan “Alpomishning qaytishi” spektakli, 2004 yilda Qirg‘izistonning Jalolobod drama teatrida rejissyor Aleksandr Ganirov bilan hamkorlikda ishlagan “Adi-badidan chiqqan janjal” spektaklini namoyish etdi. 2000 yil Germanianing Myulxaym shahridda “Ipak yo‘li teatr sayohati” loyihasi doirasida “Markaziy Osiyo teatr jo‘g‘rofiyasi” festivalida “Teatr urushga va zo‘ravonlikka qarshi” shiori ostida rejissyor Avliyoquli Xo‘jakuliyev bilan hamkorlikda Jorj Bayronning “Qobil ila Hobil” spektakli qo‘yildi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi.

Shuningdek, Shuhrat Abdumalikov davlat hukumat tadbirlari (“Mustaqillik” va “Navro‘z” bayramlari, “Sharq taronalari”)da ham o‘z mahoratini ko‘rsatib kelmoqda. 1999 yilda ko‘plab yaxshi ishlari uchun “O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi” faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Sh.Abdumalikov ustozlari izidan borib, ijodini ta’limtarbiya ishlari bilan birga ko‘sib olib bormoqda. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Teatr rangtasviri” kafedrasida dars berib kelmoqda. U shogird tayyorlashda ustoz G.Brim an’anasinig davomchisi, ya’ni har bir shogirdning o‘ziga xos, yangicha yo‘nalishi bo‘lishini xoxlaydi va kuyinchaklik bilan: “Ular izlanishlari, qiziqishlariga qarab o‘z yo‘llarini to‘g‘ri topishlari uchun yo‘naltira olishim kerak” deydi. 2010 yildan bugunga qadar professor lavozimida ishlab, ko‘plab shogirdlarga ustozlik qilib kelmoqda.

Sh.Abdumalikov 1996 yilda Yu.Shakarjonov nomidagi Farg‘ona teatrining taklifiga binoan rejissyor M.Yusupov bilan To‘ra Mirzoning

“Amir Temur va To‘xtamishxon” spektaklini qo‘ydi. Bu spektakl madaniy jamoatchilik tomonidan ijobjiy qabul qilinib, 1996 yilda o‘tkazilgan teatr festivalida katta olqishga sazovor bo‘ldi. Shundan so‘ng rassomning yurtimiz va xorij teatr rejissyorlari bilan ijodiy hamkorligi boshlanib ketdi. Bular 1993 yili Chingiz Aytmatov asari asosida rejissyor Rimma Kashayeva bilan hamkorlikda qo‘ygan “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar” spektakli, 1996 yil Yu.Shakarjonov nomidagi Farg‘ona teatri “Amir Temur va To‘xtamishxon” (To‘ra Mirzo asari, rejissyor M.Yusupov), A. Qodiriy asari, rejissyor M. Vayl tomonidan Ilhom teatrida 1999 yili “Oppoq, oppoq, qora laylak”, Jorj Bayron asari, “Qobil va Hobil”, rejissyor A.Xo‘jaquliyev 2000 yili Eski Masjid teatr studiyasi “Ilhom” teatrida, “Algomishning qaytishi” (Usmon Azim asari, rejissyor V.Umarov), 1998 yili Andijon teatri, 1999 yili Muqimiyy teatri, 2000 yili Qozog‘iston teatrida, “Ajdodlar raqsii” spektakli Sh.Abdumalikov g‘oyasi, rejissyor S.Nikolishin tomonidan 2001 yili Ankon teatrida, “Chingizxonning oq buluti” (Ch.Aytmatov asari, rejissyor S.Meliyev), 2001 yili Sh.Abdumalikov ustaxonasida “Taroqlik yovuz” (Aziz Nesin asari, rejissyor V.Umarov) 2002 yili Sirdaryo teatrida, 2004 yili Milliy akademik teatrida shu rejissyor hamkorligida “Ayolg‘u” spektakli namoyish etildi.

Izlanuvchan ijodkor 2001 yili Abror Hidoyatov teatrida ishlash bilan birga o‘z ustaxonasida “TeART” – (teatr san’ati) kam sonli tomoshabin uchun ekzotik, noyob makoni his qildira oluvchi teatrni tashkil etdi. “TeART” turli yo‘nalishlarda loyihamalar tuzish, spektakllar ustida ishlash, ko‘rgazmalar uyuştirish, instalyatsiyalar tashkil etish bilan band bo‘ldi. 2001 yili “TeART” repertuarida birinchi spektakl Chingiz Aytmatovning “Chingizxonning oq buluti” (rej. S.Meliyev), 2002 yili muqaddas kitoblar Tavrot va Injil syujetlari asosida yozilgan J.Bayronning “Yusuf va uning aka-ukalari” (A.Gamirov) sahnalashtirilgan. 2002 yili Qirg‘izistonning etnos uslubida ijod qiluvchi “Samal” guruhining teatrlashtirilgan tomoshasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu spektakl va teatrlashtirilgan tomoshalarni Sh.Abdumalikov bir-biridan farq qiluvchi uslub va yo‘nalishlardagi sahna bezaklari bilan boyitdi hamda ularni rangli yoritish uskunlari bilan ham ta’minladi.

Teatr rassomi Sh.Abdumalikov tarixiy spektakllar uchun ishlagan sahna bezaklarida asosan tarixiy shaxs obrazi va uning davrida hukm surgan muhit hamda spektakl g'oyasini, mohiyatini tomoshabinga his qila olish darajasida yetkazishga harakat qiladi.



**“Bulbul oqshomi” (rej.:G.Solov’ev spektakli
maketi.Qozog’iston TYuZ**

Guliston teatrida H.Jovid asari asosida sahnalashtirilgan “Amir Temur” spektaklida tarixiy spektakllarga xos patriarxal-statika o‘z o‘rnini harakatchan mizan sahnalarga, ulug‘vor ko‘tarinkilik rang-barang ruhiy hissiyotlarga bo‘shatib berdi.

Sahna bezaklarida an'anaviy qo'llanilib kelingan madrasa va minoralarning ko‘m-ko‘k gumbazlari o‘rnini ikki qavatli yog‘och kurilmalarni rassom Sh. Abdumalikov yaratadi.

Spektakl oddiy qurilishlardagi kabi bolg‘alar zarbi bilan boshlanadi. Unda shu’la, sahnnaviy texnik vositalardan, doira, aylana, pirotexnikadan keng foydalanilgan. Sahnadagi barcha jihozlar, ko‘rinishlar davlatning adolatparvar himoyachisi, turkiy xalqlarni birlashtirish uchun intilgan sarkardaning ma’naviy qudratini ochishga bo‘ysundirilganini rassom Sh. Abdumalikov hamda rejissyor V. Umarov ta’minlashgan. Temur imperiyasining tashkil topayotgani, yirik davlatning barpo bo‘layotganini

rassom ana shu tarzda spektakl mohiyatini tomoshabinga yetkazadi. Tarixiy janrda ishlangan rangtasvir asarlarini kuzatgani, ularda ramzlarning ahamiyatini yaxshi o'rganganligi sahna ko'rinishida seziladi. Rassom pesadan kelib chiqqan holda o'z tasavvuridagi Amir Temur obrazini yirik imperiya tashkil qilayotgan, o'ziga qarashli bo'lган davlatlarda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgan shaxs sifatida, shu bilan birgaadolatparvar, xalqining ilm olishiga imkoniyat ochib beruvchi xalqparvar, kamgap va ulug'vor shoh qiyofasida tasvirlaydi. Spektakl finali esda qolarli. Unda asta-sekin aylanayotgan yog'och ustunlar Amir Temur qudratiga ishora. Urushni diqqat bilan kuzatayotgan Sohibqironning qat'iy nigohida g'alabaga ishonch tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi. Bu yerda shakl va mazmun omuxta bo'lib, rassom spektaklning esda qolarli timsolini o'zining ishlarida aniq ko'rsatgan. Rassomning ramzlar va simvolikani keng miqyosda anglashi uning ana shu jihatlarning barchasini spektakl davomida to'g'ri qo'llay bilganligida ko'rindi.



"Bulbul oqshomi" (rej.:G.Solov'ev spektakli maketi.Qozog'iston
TYuZ

Spektakl sahna ko'rinishi tarixiy dramalarning an'anaviy sahna bezaklaridagi bir xillikdan qochganligi, senografiya spektakl voqealari rivojiga va qahramonlari harakteri qiyofasini ochib berishga xizmat

qilishi bilan esda qolarli va e'tiborlidir. Bunda albatta rassom Sh.Abdumalikovning o'rni o'zgachadir.



“Gamlet” spektakli maketi

Farg'ona teatrida 1996 yilda rejissyor M.Yusupov tomonidan sahnalashtirilgan To'ra Mirzoning “Amir Temur va To'xtamishxon” spektakli jo'n bayonchilikdan qochgan bo'lib, rassom Sh.Abdumalikov spektaklini sahnaviy majoziy timsollar bilan boyitgani hamda Amir Temir taqdiri haqida hikoya qiluvchi o'ziga xos sahnaviy yechimni takdim eta olganligi bilan e'tiborli. Sh.Abdumalikovning tarixiy shaxs, buyuk sarkarda harakterini ochishda an'anaviylikdan qochgan holda, yangicha badiiy yechim izlaganini ko'rish mumkin.

Sahna markazida katta doira. Uni bir chuqur quduq ham deyish mumkin. Doira, ya'ni quduq devorlari toshlardan qurilgan bo'lib, (toshlar insonning kalla qismi shakliga ham o'xshab ketadi) qadimdan yurtimizda karvonsaroylarda mavjud bo'lgan sardobalarni eslatadi.

Sh.Abdumalikovning tarixga, davlat arbobi, bobokalonimiz Amir Temur davridagi hayotga qarashi, davr muhitini, makon kengligini yaxshi bilishi seziladi. Tarixda boylik, shon-shuhrat uchun kurashda yoki o'z joyi-vatanini saqlash uchun turli qirg'in-barotlar qilish va necha-necha begunoh insonlar qoni to'kilishiga sabab bo'lishi mumkin degan falsafani aytmоqchi bo'ladi. Tarixning haqqoniy aks ettirilishi, Temur obraziga

rassomning o‘ziga xos talqini unga katta yutuq olib keldi. Amir Temurning adolatparvar va xalqparvarligini, jangda yengilmas jasur sarkardaligini Sh.Abdumalikov Amir Temur obrazi uchun tanlagan zirhli, jangovor, shaxsga ulug‘vorlik baxsh etib turuvchi libosi orqali ifodalab beradi. Harakat sahna o‘rtasidagi doira - quduqning goh ustida, goh yonida davom etadi. Kurash quduqning chet qismida bo‘lib, yengilgan odam uning ichiga, tubsiz quduq qariga tushib ketadi. Tarixda davlat, shohlik va boylik uchun bo‘lgan kurashning ayovsizligini ana shu sahna orqali rassom mahorat bilan ochib beradi. Tomosha ana shu tarzda kechaveradi.



“Amir Temur va To‘xtamishxon” spektakli eskizi

Ikki asarga ikki xil talqin bir rassom ifodasida betakror aks ettirilganligi har ikki senografiyada o‘ziga xos namoyon etib turibdi. Rassom yutug‘i har ikkisiga pesa mazmunidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos tarzda yondasha olganligi va bir-birini takrorlamaganligidadir.

Taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatov qalamiga mansub “Chingizxonning oq buluti” asari 2001 yili rejissyor S.Meliyev tomonidan rassom Sh.Abdumalikov hamkorligida va uning “TeART” teatr-studiyasi (ustaxonasida) sahnalashtirilgan. Sh.Abdumalikov senografiyasi ushbu spektaklida o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Sahna tomoshabinning qarhisida bo‘lib, aktyor hatto pichirlab gapirsa ham ilg‘ay oladigan yaqinlikda joylashgan. Unda umumiy faktura rang, sahrolik, qum rangida berilgan sahna markazidan chetda ikkita jang

harbiy aravasi qo'yilgan. Aravalar taxtadan yasalgan. Chingizxonning jangga chiquvchi kichik sahnada yirik sarkarda Chingizxonning katta yurishlari, jangu-jadallari ko'rsatishi kerak. Rassom sahnani shunday ishlaganki, aravalarni, sahrolik va qum fakturasidan tomoshabin voqeaneing makonini hamda ana shu makonda ko'plab harbiy yurishlar bo'lib turishini his eta oladi. Ko'chmanchi mo'g'ullarga xos va vaqtini, makonni, tomoshabinga aniq tarzda aks ettirgan sahna yuksak mahorat bilan ishlangan. Ushbu asarda Chingizxon jangga chiqishdan oldin osmondag'i oq bulutga qarab oladi va uning o'ziga baxt keltirishiga ishonadi. Sahnada aravalar yuqorisiga o'rnatilgan havo rang mato orqali osmon va bulut aks ettirilgan. Chingizxon o'ziga qarashli askarlarga uylanmaslikni buyurgan bo'ladi. Qattiqko'l xon buyrug'ini bajarmaganlarni ayamay jazolardi. Bayroq to'quvchi bir qiz bir askar yigitga ko'ngil qo'yadi. Muhabbatning mevasi natijasida bir inson dunyoga keladi. Chingizxonning qulog'iga yetib borgan ushbu xabardan so'ng qiz va yigit jazolanadi.

Rassom Sh.Abdumalikovning shu spektakldagi yangi topilmasi butun asarning mohiyati-mazmunini tomoshabinga aniq yetib borishida katta vazifani o'taydi. Bunda rassom ikkita jang aravasini ip yigiruvchi stanok sifatida va Chingizxonning oq bulutini esa momiq paxta qilib, keltiradi. Qiz va yigitni jazolaganidan so'ng, bayroq to'quvchi qiz ana shu bulut paxtani oxirigacha to'qib yigiradi. Tarixiy janrda yozilgan asardagi badiiy to'qimalarni rassom Sh.Abdumalikov chuqur anglaydi, anglash barobarida o'zining dunyoqarashi va o'z nuqtai nazaridan mushohada qiladi. Sahna so'ngida Chingizxon jangga chiqishdan avval oq bulutga qaraydi va uni ko'rmaydi. Topilma butun asar mazmuni va g'oyasi bilan rassom mahorati qirrasining darajasini namoyon etib turadi.

Spektakl qahramonlariga ishlangan liboslar obrazlar harakterini to'liq namoyon qila olishi va yangicha badiiy did hamda tarixiy liboslarni zamonaviy uslubda tikilganligi bilan e'tiborli. Unda hayvonlar terisi fakturasidagi matodan tikilgan liboslar obrazlar harakterini ochib beruvchi shakkarda berilgan bo'lib, ular orqali davr makonni ham his etish mumkin.



Shuhrat Abdumalikov ijodiy jamoa bilan

Chingiz Aytmatov ushbu asari orqali tarixiy shaxslarning hayotiga nazar tashlash bilan birga ularning tarixda qolarli ishlarini qaysidir ma'noda tahlil, to'g'rirog'i mushohada qilishga uringan. Muallif maqsadini, asarning asosiy g'oyasini to'g'ri anglagan rassom Sh.Abdumalikov spektaklda buni shakllar, faktura, kolorit orqali eksperimental tarzda tomoshabinga yetkazadi.

1995 yili teatr rassomi Sh.Abdumalikovning diplom uchun ishlagan eskizi 1998 yilda Yoshlar teatrida sahnada qo'yildi va u o'zbek senografiyasida o'ziga xos yangilik sifatida sahnada namoyon bo'ldi. Bu Temur Zulfiqorovning "Behili tushlar" spektakli uchun Rus dramatik teatri sahnasida rejissyor Avliyoquli Xo'jaquliyev bilan hamkorliqda ishlagan senografiyasi edi.

Oppoq sahna. Katta teatr sahnalarida birinchi marta makon oq rangga bo'yalishi edi (bu uslub bugunda davom etmoqda). Behi daraxtlari ham oppoq. Oppoq behi daraxti qandil misoli joylashtirilgan. Oppoq daraxtlarga xuddi o'rgimchak to'ri shaklida to'qilgan mayin oppoq to'r o'rab chiqilgan. Oq rangdagi atrof go'zal va betakror tushni eslatadi. Spektakl sahnasi mana shu ko'rinish bilan boshlanadi. Daraxtlar tepasida spektakl qahramonlari suhbat qurishadi, bir-birlari bilan qiziqarli mavzularda gaplashishadi.

Spektakl davomida voqealarning o‘zgarishi bilan sahnadagi ko‘rinish ham o‘zgacha tus olib boradi. Spektaklning ikkinchi sahna ko‘rinishida tomoshabin aqlini shoshruvchi manzara namoyon bo‘ladi. Rassomning ajoyib topilmasidan rejissyor ustalik bilan foydalananadi. Unda ikki bosh qahramon cho‘milish sahnasi. Shunda sahnada balanddan pastga qarab birin-ketin ko‘zachalar paydo bo‘ladi. Birining ichidagi suvi ikkinchisinkiga oqib suv pastlayveradi va boyagi ikki qaxramon cho‘milayotgan ariqqa kelib quyiladi. Sahnada tabiiy va betakror sharsharaning yuzaga kelishi spektaklni ko‘rayotgan har bir tomoshabinning emotsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Tushning bu qadar go‘zalligini tomoshabin ko‘z o‘ngida jonlantira olgan hali talabalik chog‘idayoq bunday sahnani tasavvur qilib eskizga tushira olgan rassom mahoratining yuqoriligidagi qoyil qolsa bo‘ladi.

Spektaklning uchinchi sahnasida shoh va uning harami paydo bo‘ladi. Bu sahnani rassom noziklik bilan ishlagan bo‘lib, bejirim arg‘imchoq va unda uchayotgan qahramonlarning suhbatlari paydo bo‘ladi. Tomoshabinda bu sahna spektakl’ kahramoniga tegishli xosxona - haramligidan darak berib turadi.

Spektaklning keyingi ko‘rinishi yana tomoshabinda hayrat uyg‘otish bilan bir qatorda unga zavq ham bera oldi. Bu sahna bog‘ kartinasi unda favvoralar atrofga jonli suv sepa boshlaydi. Rassomning bu spektakldagi yana bir topilmasi oddiy narsalardan ajoyib holat va betakror bog‘ manzarasini tasvirlab bera olishi bilan esda qoladi. Unda rassom kichik-kichik qovoqlarga suv quyib, yuqoriga ilingan bu qovoqchalarni aylantiradi. Sahnada jonli, tomoshabinga ham, sahnada rol ijro etayotgan aktyorlarga ham zavq bera oluvchi favvorachalar paydo bo‘ladi.

Spektakl davomida yuz berayotgan sahnadagi o‘zgarishlarning barchasi sahnanning oppoq rangi bilan uyg‘unlashadi. Rassom tomoshabinni tush ichida bo‘layotgan voqealar ekanligiga ishontiradi. Rassom Sh.Abdumalikov ushbu spektaklga ishlagan sahna bezagi orqali o‘zbek senografiyasining bundan keyingi taraqkiyotini rang-barang va yangiliklarga boy bo‘lishini belgilab beradi.

Usmon Azimning “Alpomishning qaytishi” pesasini rejissyor Valijon Umarov bilan birgalikda 1998 yili Andijon viloyat dramatik teatrida, 1999

yili Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri hamda 2000 yili Qozog'istonning Jettisoy drama teatrida sahnaga ko'ydi. Ushbu spletakl etnografik-folklor yo'nalishida bo'lib, uning zamonaviylashtirilgan shakli. Unda xalq og'zaki ijodiyoti bilan bir qatorda milliy liboslar milliy-amaliy san'at buyumlari ham qo'llaniladi.



"Umar Hayyom yulduzi" spektakli eskizi. T.Zulfiqorov asari

Bularning barchasi tomoshabinni bugungi zamonga moslashtirishga, tomoshabin sahnadan ko'z uzolmaslikka undaydi. Serjilo liboslar, rang-barang palak kashtalari - barchasi butungi kun bilan hamohang tarzda sahnada namoyon bo'ladi. Ushbu spektakl bezagida rassom sahna bezagi san'atida etnografiyani ochib berishda yangi bir usulni qo'llaydi. Bu faqat chiroqlarda yoki libos va bezaklarda emas, balki barchasining umumiy yaxlitligini tashkil etuvchi badiiy g'oya ko'rindi. Sahna bezagiga liboslarning mosligi, chiroqlarning o'z joyida ko'llanishi, kerakli rangni o'z vaqtida ko'llay bo'lishi hammasi bir butun yaxlitlikni, ya'ni spektakl badiiy g'oyasini ochib berishda tomoshabinga ko'makchi vazifasini o'taydi.

Usmon Azimning "Alpomishning qaytishi" pesasini rejissyor Valijon Umarov bilan birgalikda 1998 yili Andijon viloyat dramatik teatrida, 1999 yili Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri hamda 2000 yili Qozog'istonning Jettisoy drama teatrida sahnaga ko'ydi. Ushbu spektakl etnografik-folklor yo'nalishida bo'lib, uning zamonaviylashtirilgan

shakli. Unda xalq og‘zaki ijodiyoti bilan bir qatorda milliy liboslar milliy-amaliy san’at buyumlari ham qo‘llaniladi. Bularning barchasi rassom bugungi zamonga moslashtirishga, tomoshabin sahnadan ko‘z uzolmaslikka undaydi. Serjilo liboslar, rang-barang palak kashtalari - barchasi butungi kun bilan hamohang tarzda sahnada namoyon bo‘ladi. Ushbu spektakl bezagida rassom sahna bezagi san’atida etnografiyanı ochib berishda yangi bir usulni qo‘llaydi. Bu faqat chiroqlarda yoki libos va bezaklarda emas, balki barchasining umumiy yaxlitligini tashkil etuvchi badiiy g‘oya ko‘rinadi. Sahna bezagiga liboslarning mosligi, chiroqlarning o‘z joyida ko‘llanishi kerakli rangni o‘z vaqtida ko‘llay bo‘lishi hammasi bir butun yaxlitlikni, ya’ni spektakl badiiy g‘oyasini ochib berishda tomoshabinga ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

1998 yili rejissyor Olimjon Salimov bilan hamkorlikda Yosh tomoshabinlar teatrda Molerning “Uchar tabib” asariga ajoyib sahna bezagi ishladi. Komediya janrida yozilgan ushbu asarga rassomning murojaati, yangicha yondoshganligi, bunda tomosha san’ati bezaklari tufayli sahnani ikki tarafdan ham bir vaqtning o‘zida ko‘rish mumkin.

Yevropa usullaridan foydalangan holda milliy jihatlarni mahorat bilan ko‘rsata olgan. Unda tabibning odamlarni turli yo‘llar bilan aldab yurishi, bir xillikni saqlay bilmasligi haqida gap boradi. Spektaklda hayotdagi ba’zi illatlar o’tkir kulgu ostiga olinib, asrimiz boshlarida shakllangan maydon teatrlariga xos uslub ko‘llanilgan. O’tkir kulguga yo‘naltirilgan voqealar, o‘zbek teatrining an’anaviy yechimlaridan bo‘lgan improvizatsiyaga erkin o‘rin qoldirish ushbu postanovkada sezilib turibdi. Spektaklda aktyorlar tomoshabin ko‘z o‘ngida bir qiyofadan boshqasiga o‘tib, quvnoq, erkin va nafis xatti-harakatlar bilan teatrlashgan tomosha kayfiyatini uyg‘otadilar.

Ushbu spektaklda rassom sahnani chalkashtirish uslubida quradi. Sahnada aslida hamma narsa aniq, biroq qahramonning xatti-harakatlaridan tomoshabin chalkashib ketishi mumkin. Sababi - tabib turli liboslarni kiyib, qiyofasini o‘zgartirib tomoshabinga har turli bo‘lib ko‘rinaveradi.



“Alpomishning qaytishi” spektakli eskizi. 70x90. Мато.Бўёқ.

Sahnada uch qavatli uylar. Uning har bir qavatida esa har xil ro‘zg‘orli odamlarning hakiqiy o‘zbekona yashash tarzi ushbu sahnada mujassamlashtirilgan. Unda o‘zbekning qulf urilgan sandig‘i, uning ustiga yig‘ilgan ko‘rpa-to‘sak, bolish, beshik, to‘rqovoqlar, uy hayvoni - eshak hamda taxtadan bejirim ishlangan supa, uning ustida obdasta, uyga ilingan so‘zana va palaklar yana ham sahnaga bezak beradi. Ikkinchi qavatda esa dorga ilingan buyumlar, uning pastida esa doshqozon, tomga chiquvchi narvon va yana boshqa uy-o‘zg‘or buyumlari bilan to‘dirilgan.

Sahnadagi bu ajoyib manzarani rassom uzun yog‘och xodalarni birin-ketin taxlash, unga turli buyumlarni qator ilib tashlash orqali ifodaladi. Spektakl qahramoni ana shu buyumlarning u yog‘idan bu yog‘iga o‘tib, turli liboslarni kiyib, tomoshabin ko‘zini chalg‘itishga harakat qiladi, hammani laqqilatib yuradi.

“Uchar tabib” spektakli sahna bezagi tomosha janrida ishlangan bo‘lib, sahnaning u tarafida ham, bu tarafida ham xuddi shu spektaklni bir vaqtning o‘zida o‘ynash mumkin qilib ishlangan. Biroq, teatr sahnasida buning imkonи bo‘lmaganli uchun tomoshabin uning faqat bir tarafinigina qo‘rib qolaverdi. Rassom oddiy buyumlardan spektakl mohiyati va mazmunini

tomoshabinga yetkazib bera olishga urinadi. Tabibning hammani laqqilatib yurishini, uning ikiyuzlamachiligin liboslar orqali va sahnadagi ko‘zni chalkashtiruvchi buyumlar orqali ochib beradi. Sahna bezagi asosan xodalarga matoga chizib ilingan tasvirlar va kiyimlardan iborat. Shunga qaramay, tomoshabinni spektakl davomida sahnadan ko‘z uzmay tomosha qilishiga uning rang-barang ishlanganligi va ijro mahorati ham sababchidir.

Rassom Sh.Abdumalikov sahnada folklor-etnik, epik yo‘nalishda ijod qilar ekan, u qadimgi tomosha san’ati sahna bezagi usulidan boradi va milliylik baravarida senografiyaning jahon standartlariga javob bera olishi va keng dunyoqarashini ko‘rsata oladi.


“1999-2000 yilgi teatr mavsumi yakunida Toshkentda ikkita yangi spektakl namoyish etildi - J.Bayronning (“Eski Machit” teatr-studiysi, rejissyor A.Xodjaquliyev) dramasi asosida “Qobil va Hobil” va G.Markesning hikoyasi asosida “Polkovnikka hech kim yozmaydi.” (A.Hidoyatov nomidagi teatri rejissyor A.Kudryavsev). Ikkala spektaklga ham Sh.Abdumalikov tomonidan senografiya yaratilgan. Ushbu spektakllarning so‘nggi paytlarda o‘zbek teatrining eng qiziqarli hodisalaridan biriga aylangani, shubhasiz, teatr rassomining katta xizmatidir.”⁴

1999 yilda Qarshining “Eski masjid” teatr-studiysi Jorj Bayronning “Kain” dramasi asosida “Qobil ila Hobil” nomli spektaklni namoyish etdi. Ushbu spektaklda rassom Sh.Abdumalikovning rejissyor Avliyoquli Xo‘jaquliyev bilan hamkorligi muvaffaqiyatli bo‘ldi. P’esa voqealari asosan muqaddas kitoblar Tavrot, Injildan olingan bo‘lib, unda Xudo - Cho‘pon, u yaratgan odamlar qo‘ylar misolida olingan. Yer yuzida yuz beruvchi dastlabki qotillik va aka-ukalarning bir-biriga qarshiliklari haqidagi voqealar diniy mavzudagi spektakl syujetiga singdirilgan. Shu bilan birga spektaklda zamonaviy teatr uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy, axloqiy xulosalarga ham alohida ahamiyat berilgan. Teatr talqinida Qobilning tubanlashuvi va tavba tazarrusi padarkushlik hamda zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘lib jaranglaydi.

⁴ Ильдар Мухтаров “Театральный художник Шухрат Абдумаликов”, SAN’AT jurnali, 2000/3



“Qobil va Hobil” spektaklidan “Eski masjid” teatr studiyasi



“Qobil va Hobil” spektakli afishasi

Rassom ushbu spektakl senografiyasini modern stilida ishladi. Sahnada Shimol, Janub, Sharq, G'arb tomonlarni ifodalovchi to'rt joyga ravoq shaklida o'rnatilgan yog'och va ularning o'rtasidagi kichik maydonga qo'y yungi qoplangan to'rt ravoqli yog'ochlar bir-biriga tizza bo'yli jundan to'qilgan devor bilan yopilgan. Uning ichidagi insonlar yog'och ravoqli eshiklardan kirib-chiqishlari mumkin. Ular boshqa joyga chiqib keta olmaydilar. Diniy mavzuni rassom Sh.Abdumalikov o'ziga xos tarzda his qilib, modern uslubda, o'zgacha shaklda sahnaga qo'yadi. Senograf muallif tomonidan aytilganlarini sahnada boshqacha ruh bilan ifodalab bergen. Insoniyatning belgilangan to'siqlardan o'ta olmasligi va aynan aytilgan joydangina yurishi mumkinligini rassom sahnadagi makonni chegaralash va shu bilan birga muhitni his qildirish, tomoshabin tasavvurini aniqlashtirish istagida to'rt taraf chegaralangan makonni jonlantiradi. Unda tabiiy jun, yog'ochlar, hayvon terisidan ishlangan do'mbira, uning ustida loydan yasalgan ko'zachalar ilingan. Sahnada qo'llanilgan har bir detal spektakl mohiyatini ochish, voqealar rivojiga ta'sir o'tkazish maqsadida harakatlanadi. Yog'och ravoqlardan o'lgan Hobilni solish uchun tobut yasaydilar. Sahna o'rtasidagi junlar- qo'ylar - insonlar ramzi sifatida, yana yerda yashayotgan insonlar iplarni to'qib tirikchilagini o'tkazayotganligini ham bildiradi.


Spektakl qahramonlariga tanlangan liboslar obraz harakterini ohib bera olganligi bilan e'tiborli. Masalan, gunohlar qilishga ulgurmagan, shayton gapiga quloq tutmagan Hobilning libosida poklik, tozalik beg'uborlik ko'rinsa, shaytonning libosida esa aynan yovuzlikni tarqatuvchi, yomonliklarga chaqiruvchi hiyla-nayrangleri bilan to'g'ri yo'ldagilarni chalg'ituvchiligi aks ettirilgan bo'lib, libos harakterining to'liq ochilishida katta ahamiyat kasb etgan. Boshqa qahramonlar liboslarida obraz harakterining ochilganligi hamda ular diniy mavzuda bo'lishiga qaramay barcha yechimlari zamonaviy tarzda yechilganligi bilan namoyon bo'ladi. Liboslar sahna muhitiga monand tanlangan. Spektakldagi vaqt, makon insoniyat ongingin rivojiga o'sishiga qarab o'zgarayotgandek taassurot qoldiradi. Spektakl so'ngida mazmuni va asosiy g'oyasining yechimi topilishida ko'rilgan senografiyaning ahamiyati va ta'siri katta. Yer shari va unda yashashga hukm etilgan inson

obrazini rassom ana shu shartli belgilar bilan, ramziy timsollar bilan ifodalab berdi.

Ushbu spektakl 2000 yil Germaniyaning Myulxaym shahrida “Ipak yo‘li teatr sayohati” loyihasi doirasida “Markaziy Osiyo teatr jo‘g‘rofiyasi” festivalida “Teatr urushga va zo‘ravonlikka qarshi” shiori ostida qo‘yildi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘ldi.

Har bir rejissyor biror-bir spetaklni sahnaga qo‘yar ekan, uning o‘z tushunchasi va olg‘a surayotgan g‘oyasi, badiiy obrazi bo‘ladi. Sahna bezagining ham ana shunday o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lib, ular rassom talqin qilayotgan tasvir va detallarda, faktura va ranglarda namoyon bo‘ladi.

“Oppoq, oppoq qora laylak”, “Uchar tabib”, “Qobil va Hobil” kabi spektakllarga klassik uslubda ishlangan sahna bezaklari rassom Sh.Abdumalikovning sahna bezagi san‘atining turlarini, usullari va yo‘nalishlarini yaxshi o‘zlashtirganidan, yuksak mahoratidan darak berib turadi.




“Oppoq, oppoq, qora laylak” spektakli. “Ilhom” teatri

1999 yili Abdulla Qodiriyning “Kalvan Mahzumning yon daftaridan” nomli tugallanmagan qissasi asosida sahnalaشتirilган “Oppoq, oppoq, qora laylak” spektakli bugungi kunda “Ilhom” teatrining

“Tumor” spektakllaridan biriga aylangan. Rejissyor B.Kamolov, badiiy rahbar Mark Vayl hamda rassom Sh.Abdumalikov hamkorligidagi ushbu spektakl rus sahnasiga o‘ziga xos fikriy va hissiy dunyoga ega ajoyib o‘zbek romanistining hayratlanarli va murakkab obrazlari kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Tomoshabin ko‘z o‘ngida Toshkentning XIX asr so‘nggi yillardagi voqealar namoyon bo‘la boshlaydi. Yosh, hali taqdir qiyinchiliklarda toblanmagan yigitning munofiqlik va fikriy qoloqlik bilan to‘qnashuvi asar syujetini harakatga keltiradi. Spektaklda rassomning mahorati to‘la namoyon bo‘ladi.

Sahnada hamma narsa oppoq rangda. Daraxtlar, yer, osmon, hatto tuproq ham, ko‘zalar, savatlar - hammasi oppoq. Ushbu rangdan rassom pokizalik, tozalik, musoffolik ramzi sifatida foydalangan. Rassom bu ramzlar orqali tomoshabin fikrida ongida obrazni, spektaklning badiiy obrazini shakllantira oldi, oq va qora, yaxshilik va yovuzlik kabi qarama-qarshi kuchni tasavvurida namoyon etadi. Spektakl davomida astasekinlik bilan yoshlarning hayotga jamiyatning “ikir-chikr”lari, ya’ni qora liboslarning kirib kelishi va ularning tinch-osoyishtta hayotiga, pokiza va toza qalblariga rahna solish qarama-qarshi qo‘yilgan.



“Oppoq, oppoq, qora laylak” spektakli. “Ilhom” teatri

Sahna markazida daraxt qad ko'targan bo'lib, bosh qahramonning pok va musaffo olami ramzidir. Turli unsurlar mato, bo'yra, ko'rpa chalar vositasida rassom Turkistonning XX asr boshidagi muhitini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Oddiy maishiy anjomlar, masalan, sopol ko'zalar asosiy ifodaviy mazmunini yoritishga xizmat qilgan. Bu ko'zalarning biridan qahramonlar suv ichsalar, boshqasidan gul yaproqlari to'kiladi. Finalning ayanchli qismida esa, bu ko'zalardan pul to'kila boshlaydi. Teatr dekoratorining mahorati bu yerda tomoshabinni ko'rayotgan narsalariga, ya'ni hamma narsaning oqligi va keyinroq unga qarama-qarshi rangning kirib kelib, unga tajovvuz qilayotganiga ishontira olganligida.

XX asr boshlarida urf bo'lgan paranji yoki davrga xos bo'lgan me'morlik uslublari kabilardan foydalanishi mumkin. Biroq rassomning an'anaviyliqdan qochish barobarida o'ziga xoslikka, yangicha narsalarga, o'zgacha keng dunyoqarashga ega bir olamni yaratishga intilishi seziladi. Spektakl harakteri, badiiy yechimi mukammal o'ylangan, professional ishlangan sahna bezagi - senografiyada o'z aksini topadi. Spektakl davomidagi butun voqealar rivoji va yakuni barchasida sahna bezaklaridagi o'zgarishlar orqali ifoda etilayotgan ma'no-mazmun alohida ahamiyat kasb etadi.

Teatr rassomi Sh.Abdumalikov o'z fikrlarini, ijodiy jarayonda to'plaganlarini bir spektakl asosida betakror sahna bezagi, plastik harakatlar orqali so'zsiz namoyish etadi. Ushbu spektakl "Ajdodlar raqsi" deb nomlangan bo'lib, 2001 yil rejissyor S.Nikolishenning Ankon teatr-studiyasida teatr-studiya rahbari S.Nikolishen yordamida sahnalashtirilgan. Unda ijodkor insonning ongosti (podsozdaniya)da yuz bergen to'qnashuvlar haqida so'z yuritiladi. Ushbu spektakl psixologik jarayonni his qildiruvchi senografiya inson ruhiyatidagi turli o'zgarishlarni o'zida jam qila olgan musiqa hamda aktyorlarning plastik harakatlari orqali ochib berilgan. Dastlab sahnada oq odam shaklida keltirilgan mato yuqoriga qarab tortiladi. Keyin undan inson tushib keladi. Ijodkor insonning o'z olami, o'z dunyosi (podsoznaniya)ga tashrifini rassom Sh.Abdumalikov spektaklda rejissyorlikni ham mahorat bilan bajargan holda ana shunday tasvirlaydi.

Ijodkor inson borki, doimiy izlanish va o'rganishda bo'ladi. Izlaganimni topdim, degan haqiqiy ijodkorni hali hech kim uchratmagan. Unday insonlarning har birining o'z olami, o'zi ko'rgan va yaratgan dunyosi bo'ladi. Ana shu olam ichra o'sha inson ko'plab yaxshiliklarga erishish barobarida turli qiyinchiliklarga, to'qnashuvlarga duch keladi. Ularning barisini yengil o'tish uchun kuch-quvvat yig'adi. Bu kuch-quvvatini u kitoblaridan izlaydi. Tinimsiz o'qish va o'rganish orqaligina bunga erishish mumkinligini uning aqli yetadi, biroq u o'rganish, izlanish zinalarini bosib o'tib yuqoriga ko'tarilayotganini his qilsa-da, maqsadi, orzusi qarshisida namoyon bo'lganidan bexabar bo'ladi.

Dunyoning oppoq olamidan inson shaklida yerga tushgan odam: dastlab beg'ubor va xokisor bo'ladi. Uning dardi, dunyosi g'am yoki g'ussasi ham yo'q. Unda faqat orzu va havas, istak va xohish bor, xolos. Orzuga erishmoq uchun o'z oldiga maqsad qo'yadi. Maqsadni amalga oshirmoq insondan katta ilm, ko'plab iztiroblarni chekmoqlikni talab etadi. Istagi bor inson uchun qiyinchiliklar hech narsa emas. Ilm olish uchun, dunyoning sir-asrorlarini bilmoq uchun o'rganmoqqa intiladi.

Buni rassom Sh.Abdumalikov jonsizlik va ojizlikka to'qnash kelgan insonning plastik harakatlari, mimikasi hamda liboslari orqali ohib berishga harakat qiladi. Nur va soya o'yini sahnada chiroqlarning o'z vaqtida, kerakli joyda qo'llanishi bilan spektakl g'oyasini yana ham aniqlashtiradi. Sababi - so'zsiz harakat qilayotgan aktyor mimikasidagi o'zgarishlar chiroqlar bilan yoritiladi. Shunda qahramonning azob chekishi yoki nimanidir izlayotgani, eslashi yoki qattiq haya jonga tushish holati aniq ko'rsatiladi.

Ilm, din yo'lini tanlagan qahramon bu yo'lda har qanday to'siqlarni bosib o'tishi, kiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi. Tinimsiz harakat, ko'z toliqishi, boshining qattiq og'rishi... bular maqsadga erishishi uchun xalaqit beruvchilardek tuyuladi nazarida. To'siqlar bir kuni yo'q bo'lishiga, izlaganiga yetishishiga ishonadi.

Qahramonning izlanishi, o'rganishlari uning sahnada turli liboslarni kiyib, so'ngra yechishi va boshqasini olishi orqali ifodalanadi. Unda liboslarda obraz harakterini, ruhiy holatini aniq va ravshan ohib berilganligi katta ahamiyat kasb etadi.

Sovuqlik... qorong'ulik... qahramonning notekis yo'llarni to'g'ri, deya maqsadga erishish uchun harakatlarida xalaqt bera olmaydi. Sahnada ko'zлari berkitilgan qiz va yigit namoyon bo'ladi. Ularning bir-biriga intilishi muhabbatdan darak beradi. Bu vaqtda qahramon muhabbat atalmish hisga iliqlikn tuyadi. Bu his uning borini egallab, vujudini yondira boshlaydi. Hayotning ma'nisi, yashamoqning lazzatini ham xuddi mana shu hisda deb biladi. Shunda sahnada qahramon ko'zini ochadi va yonida qiz turganini va uning sovuq nigohini ko'radi. Qocha boshlaydi. Bu o'zi istagan qiz, o'zi his qilgan tuyg'u emas edi. Adashganligini, o'zi kilgan bu otash yolg'onligini anglaydi. Qiynoq, o'zi his etgan azobdan chiqib ketish holatini uni qiynay boshlaydi. Shu vaqt uning ko'z oldida sochlari mayda o'rilgan, arg'imchokda betashvish va har qanday charchoq qiynoqlardan holi holda o'tirgan beg'ubor qizcha namoyon bo'ladi. Bu uning bolaligi edi, oh, uradi, o'sha paytga qaytishni so'ngsiz va cheksiz bu olamning tashvishi va g'amlaridan tezroq qutilishni istaydi. U dunyoni anglaganiga, orzulariga intilganiga afsus qiladi. Va tezda kechligini anglaydi. U bilganlaridan, anglaganlaridan azob chekadi. Sababi izlaganini topa olmas, nihoyasiz tomonga ketib borayotgandek bo'ladi.

Ortga yo'l yo'qligini anglagan va faqat oldinga tashlashga o'rgangan inson yo'li to'g'rilibini aniq bilmasa-da, maqsadi ezbilikni aniq his etadi. Maqsadi aniq kishini esa hech qanday kuch uni ortga qaytara olmasligini yoki to'xtata olmasligini ham bilardi. U faqat oldinga qarab yurardi.

Sahnada musiqa, yashil kulrang, qora rangli matoda tashlangani, qog'ozlarning u yer-bu yerida kitoblarning ham yotganligi ko'zga tashlanadi. Sahnada yakuniy, biroq nihoyasi xulosasini tomoshabin hukmiga havola etgan muhit yuzaga keladi.

Ushbu psixologik yechimga ega, inson ongosti kurashi bilan bog'liq kechinmalarni sahnada oddiy bezaklar orqali so'zsiz ifodalab berilgani bu jarayonni senografning o'zi hal qila olgani e'tiborga sazovordir. Tomoshabin spektaklni so'zsiz holatda sahnaning turli ko'rinishlarga kirib o'zgarishi orqali spektakl mohiyatini va g'oyasini his etib, anglay oladi.

Zamonaviy mavzudagi spektakllar uchun ishlagan sahna bezaklari rassomning ijodi beqarorligidan, izlanishlarining ko'lami kengligidan darak berib turadi.


2002 yil Olim Xo'jayev nomidagi Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida A.Nesinning "Taroslik yovuz" asarini rassom Sh.Abdumalikov rejissyor Valixon Umarov bilan hamkorlikda sahnalaشتiradi. U fojaviy farsni hech boshqa spektakliga o'xshatmagan. Rassom Sh.Abdumalikov ishlagan spektakl sahna bezaklari oldingi asarlarga na o'zining janri, na usiubi bilan o'xshaydi. Ushbu asarda shartlilik kuchli bo'lib, holatlarning o'zi absurd. Ammo anglaydigan darajada. Asar kahramoni ko'p gapiradi. Lekin amalda hech ish qila olmaydi.

Rassom "Taroslik yovuz" asarini sahnaga qo'yishda quruq, yuzaki targ'ib qilishdan voz kechib, murakkab g'oya va obrazlar mohiyatini shakllarda keng ko'lama talqin etishga erishgan. Spektakl g'oyasi har bir ko'ngilchan, soddadil, mehribon, o'z xaq-huquqlarini anglamagan inson bir kun kelib jamiyat uni jinoyatchiga aylanishi hech gap emas. Spektakl qahramonlari orqali insonlarning oldida turgan katta va kichik muammolarni bartaraf etish, qolaversa inson taqdiri haqida so'z yuritiladi. Asarning negizida esa muhtojlar va boylar dunyosi o'rtasidagi kurash, qarama - qarshiliklar yotadi. Rassom tomoshabinni spektaklda bo'layotgan voqealarga ishontiradi. Ikki qavatli bino va uning pastki qismida spektaklning asosiy voqealarini bo'lib o'tadi. Qamoqxona shaklida, derazalari panjarali, yana uy jihoz buyumlari stul, kreslo, soat, lampa zeriktirib qo'ymaydi. Ikkinci qavatda esa dam olish maskani ma'nosida rassom aktyorlarning erkin raqs tushishlari va harakatlanishlari uchun imkoniyat ochib beradi. Shu bilan bir qatorda ikkinchi qavatga stillarni teskari tarzda, ilib qo'yadi. Mizansahnalarning o'rini ishlatilishida voqealar birin-ketin ulanib ketadi. Sahnada salbiy obrazlar ijobiy kahramonlarni marianetkalar holatida boshqarayotganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Rassom sahnani tomoshabinga spektakl mazmunini ochib berish uchun muallif yozgan fars uslubini ko'llash barobarida asarga o'zining ichki munosabatini avangard shakllarda berish orqali his-tuyg'ularga

ta'sir etuvchi holatlarni yuksak darajada qurgan. Bunga ikkinchi qavatda ilingan stullar, birinchi qavatdagi detallarni misol keltirish mumkin.

Rassomning yo'nalishi, uslubi bir xilda ketmasligi, faqat bir xil stilda ijodini yo'naltirmasligi, bir joyda qotib qolishdan voz kechishi uning har bir spektakl mohiyati va mazmunini to'liq ochib bera olishiga yordam beradi. "Sh. Abdumalikov odatda pesadan hech qanday mantiq izlamaydi. Pesani aniq anglaganidan so'ng uning mazmuni va mohiyatini ochib berishga urinadi. Rassom spektaklning sahnadagi kengligini hamda asosiysi uning stili, yo'nalish va oqimini aniqlab beradi", - deydi rejissyor Valixon Umarov.⁵



"Tohir va Zuhra" spektakliga loyiha maket

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Sh.Abdumalikov Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatridda 2001 yildan 2013 yilga qadar bosh rassom bo'lib ishlaydi. Bu esa teatr sahnasida zamonaviy senografiya tamoyillari aks etishiga sabab bo'ldi. "Alpomishning qaytishi" (U.Azim, rej.: V.Umarov, 2001 y.) "Osmonning bag'ri keng" (rej.: B.Xolmirzayev, 2003 y.), "Farishtali ayol" (rej.:

⁵ Valixon Umarov bilan subbatdan, 2003 yil, dekabr

R.Ma'diyev, 2004 y.), "Baxtli bo'l, dugonajon" (rej. R.Ma'diyev, 2005 y.), "Toshkentning nozanin malikasi" (rej. M.Azizov, 2006 y.), "Otabek va Kumushbibi" (A.Qodiriy, rej.:R.Ma'diyev, 2006 y.), "Bu telba xonadon" (Guntekin, rej.:B.Nazarov, 2008 y.), "O'zbekcha raqs" (rej.: B.Nazarov, 2009 y.), "Me'mor" (E.Xushvaktov. rej.:M.Rajabov, 2013 y.) kabi ko'plab spektakllarga senografiyalar ishladi.



"Tohir va Zuhra" spektakliga loyiha maket

Teatr rassomi Sh.Abdumalikovning «Alpomishning qaytishi» (U. Azim, rej. V. Umarov) spektakliga ishlagan senografiysi 1998 yili Andijon viloyat dramatik teatrida, 1999 yili Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri hamda 2000 yili Qozog'istonning Jettisoy drama teatrida sahnaga ko'yildi. Ushbu spektakl folklor-etnografik yo'nالishida bo'lib, uning zamonaviylashtirilgan shakli. Unda xalq og'zaki ijodiyoti bilan bir qatorda milliy liboslar, amaliy bezak san'ati buyumlari ham qo'llaniladi.

Bularning barchasini rassom bugungi zamonga moslashtirishga, tomoshabin sahnadan ko'z uzolmasligiga undaydi. Serjilo liboslar, rang-barang palak kashtalari - barchasi zamon bilan hamohang tarzda sahnada namoyon bo'ladi. Ushbu spektaklda rassom sahna bezagi san'atida etnografiyani ochib berishda yangi bir usulni qo'llaydi. Bu faqat chiroqlarda yoki libos va bezaklarda emas, balki barchasining umumiyl yaxlitligini tashkil etuvchi badiiy ifodada ko'rindi. Sahna bezagiga liboslarning mosligi, chiroqlarning o'z joyida ko'llanishi, tasvir bezaklarda kerakli rangni o'z o'rnila ko'llay bilishi - hammasi bir butun

yaxlitlikni, ya’ni spektakl badiiy g’oyasini ochib berishda tomoshabinga ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

Valixon Umarov sahnalashtirilgan “Alpomishning qaytishi” spektaklini haqiqiy o‘zbek dostoni desa bo‘ladi. Alpomish haqidagi voqeaneaning baxshi tomonidan hikoya kilinishi orqali spektakl boshlanadi. Sahna o‘rtasida o‘tirgan baxshi kuylayotgan spektakl qahramonlarining murakkab taqdirlari haqidagi sokin ohangli qo‘shiqlari voqealarga o‘zgacha uyg‘unlik bag‘ishlaydi. Sahna sathining goh sirli g‘ira-shira tutun bilan qoplanishi, goh quyuq bo‘yoqlarda jilvalanishini aks ettiruvchi alohida nurlarda yoritilishi tomoshaning ta’sir kuchini, spektakl jozibadorligini yanada oshirgan.

Sh.Abdumalikovning bezagi tomoshaning dostonga, o‘zbek ertaklariga xos bo‘lgan muhitini bera olgan, sahnaning markazida baland qilib to‘rtburchak yog‘och qurilma osib qo‘yilgan. U osongina pastga tushirilib chodir shakliga kiritiladi. U goh zindon panjarasiga, goh Alpomish bo‘yniga kiydirilgan g‘uncha, goh maqtalga aylanadi. Tepaga ko‘tarilganda esa, Oybarchinning gilamlar bilan bezalgan xonasi manzarasini beradi. Rejissyor ertakni o‘z oilasiga, yori, o‘g‘liga qaytish yo‘li naqadar og‘ir va olis bo‘lganligini aks ettiruvchi mavzu asosiga quradi, sahnadagi har bir detal, ishlangan tasvir va tanlangan liboslar qahramonlar obrazini aniqroq ochilishida ko‘mak beradi. Har bir qahramonga tanlangan libos uning jismonan baquvatligi barobarida qalbi, yuragining ham jasurligi, mardligini ko‘rsatadi. Sahnadagi faktura ertaklardagi betakror manzaralarga xos tanlangan bo‘lib, o‘zgaruvchanligi va tomoshabinning zeriktirib qo‘ymasligi bilan e’tiborli.

Milliy afsonaviy kahramon Alpomish yashagan muhit, davr, makon to‘liq sahna bezagida aniq ko‘rinadi. Asar qahramonlari orasidagi to‘qnashuvlar, munosabatlarning yomonlashuvi, ziddiyatlar - barchasi Alpomishning Qo‘ng‘irotga qaytish sahnasida boshlangan. Sahnada ko‘chmanchi qabilalar yashovchi muhit: o‘tovlar, hayvonlar terisi ilingan dor yana katta kamon, qum rangidagi sahna fakturasi - barchasi spektakldagi maqsad, ma’no yechimini topishga yo‘naltirilgan. Liboslarda etnik usullarni, yurtimizning janubiy hududida yashovchilarning liboslaridagi elementlarni ko‘rish mumkin. Metafora

o‘z o‘rnida ko‘llanilganligi spektakl g‘oyasi va mavzuini tomoshabinga yakqolroq namoyon etadi. Lirik, epik qahramonlik g‘oyalari ilgari surilgan ushbu spektakl sahnasi tomoshabinda o‘ziga xos taassurot qoldiradi. Milliy etnografik usulda ishlangan sahna bezagida afsonaviy qahramonning ezgulikka, birdamlik va tinchlikka intilishi rassom tomonidan mahorat bilan tasvirlab berilgan.

Spektaklning uch joyda bir rassom va bir rejissyor tomonidan ishlangan talqinida sahna bezagida aytarli shakliy jihatdan o‘zgarishlar sezilmasa-da, lekin transformatsiyasida ya’ni texnik jihatlarida o‘ziga xos o‘zgarishlar ko‘rinadi. Masalan, Andijon drama teatrda ot terilari, o‘tovlar obrazini beruvchi uskunalar, sahna aylanishi, sahnadan-sahnaga o‘tuvchi narsalar mavjud bo‘lib, bu narsa Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrda sezilmaydi. Sababi, bu teatrda sahna aylanmaydi va sahnani aktyorlar harakati va musiqa, qo‘shiq orqali rassom rejissyorga ularni harakatlantirishiga imkon yaratib beradi. Qozog‘istonning Jettisoy drama teatrda qo‘yilgan ushbu spektakl sahna bezagidagi naqshlarda o‘zgarishni sezish mumkin. O‘tov ustiga yopqichlardagi naqshlar, kiyimlardagi bezaklarda qozoq milliy geometrik va o‘simliksimon naqshlarini ko‘rish mumkin.


“Alpomishning qaytishi” spektakli uchun ishlagan senografiyasida rassomning folklor - epik janrdagi to‘liq mahorati ochib berilganligini bilsa bo‘ladi.

2003 yil to‘rt yilda bir marotaba Praga shahrida bo‘lib o‘tadigan dunyo miqyosidagi, libos dizaynerlari, teatr binosi arxitektorlari, sahna bezagi dizaynerlarining “Praga-Kvardinalle” xalqaro ko‘rgazmasida qatnashish O‘zbekistondan birinchi marta Sh.Abdumalikovga nasib etdi. Ushbu xalqaro festival ko‘rgazmada “Sohil yoqalab chopayotgan olapar”, “Amir Temur va To‘xtamishxon”, “Alpomishning qaytishi” kabi falsafiy, inson va tabiat, inson va ekologiya, issiq va sovuq, oq va qora, ezgulik va yovuzlik kabi insonning makon bilan o‘rnashishi muammolari aks etgan eskizlarini qabul qilishdi.



“Ayolg‘u” spektakli. Milliy akademik drama teatri

2004 yili Milliy akademik drama teatrida Usmon Azim qalamiga mansub “Ayolg‘u” spektakli rejissyor Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirildi. Sahnalashtiruvchi rassom Shuhrat Abdumalikov. Spektaklda ilohiy mavzu bo‘lib o‘zida tuproq falsafasini mujassam etadi. Spektakl asosan folklor uslubida ishlangan va betakror sahna bezagi, kuy-qo‘sish va aktyorlarning xatti-harakatidan iborat. Spektaklning qaysi uslub, yo‘nalishda bo‘lishini tomoshabin sahna ochilganidan so‘ng anglab oladi. Chunki spektaklning asosiy mohiyati va mazmuni senografiyada mujassamlashtirilgan.



“Ayolg‘u” spektakli. Milliy akademik drama teatri

Rassom Sh.Abdumalikov spektakl mavzusini yaxshi his etadi va ana shu his qilganlarini sahna bezaklariga ko'chiradi. Unda yer-tuproq, fonida koinot, qabrlar, bir necha uzun xodalar o'rtasiga o'rnatilagan yog' och g'ildirak, sahnaning bu chetida esa ikki shoxli yog' och o'rnatilgan har tarafida loydan yasalgan ko'zachalar dumalab yotibdi. Sahnaning umumiy koloriti tuproq rangida belgilangan. Chiroqlarning rangida berilgan sahna effektida qorong' ulik va zulmat faqat osmon-koinot hamda yerni ko'rish mumkin. Insonda bu g'alati tinchlik, sokinlik va shu bilan birga ilohiy bir kayfiyatni bera oladi. Qabrlar aylanadi. Rassom bir shaklni bir necha ko'rinishga aylantirish orqali voqealar rivojini belgilab beradi. Voqeа biror qishloq yoki katta bino ichida emasligi, uning osmoniy, ilohiy bir uzoqlardagi makonda bo'layotganligiga ishora bergen. Bunda rassom avvalo his-tuyg'uni bera olishga alohida e'tibor qaratgan. Tomoshabin sahnani ko'rib o'zini bu dunyoda his etmaydi. Rassom yog' och xodalar o'rtasida g'ildirakni joylashtiradi. G'ildirak ma'nosida hayot mazmuni aylanish emas, vaqtни belgilash ma'nosida aytilgan bo'lib, shakli ham qumsoatga nisbat qilib olingan. Sahnaning chetidagi ikki shoxli yog' och orqali rassom qabriston belgisini va bu yerda ko'ngilxushlik yoki noma'qul ishlar qilish mumkin emasligiga ishora beradi. Spektakldagi ayollilar liboslarida dastlab farishtasifat parilar siymosi gavdalanadi. Voqeа rivojiga qarab ayollarning liboslari bir necha marta o'zgaradi. Farzand tug'ilishi va uni beshikka solish vaqtida, rangli naqshinkor liboslar, ularni kelinlikka tayyorlash mavsumida esa teatr liboslarining o'ziga xos ishlangan shakli, ya'ni ayollar boshlari turli mevalar solingan liboslar, ertaknoma shakldagi liboslarda namoyon bo'lishadi. Voqealar rivoji natijasida sahnada o'zgacha o'zgarishlar yuz beradi. Sahnadagi tuproq koloriti hayotda tug'ilish va yasharish bilan almashinadi. Tuproqdan bunyod bo'lган odam va unda ungan jonzot va o'simliklar kabi falsafa rassom tomonidan ilgari suriladi. Rassom va rejissyorning uzoq izlanishi yordamida sahna yuzini ko'rgan ushbu spektakl tomoshabinda g'ayrioddiy hisni hamda haqiqiy san'at faqat hissyotlar orqali tushunilishiga ishora beriladi.


Respublika miqyosida 2004 yil 21 may 9 iyungacha bo'lib o'tgan "37 +1" "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi loyihalari asosida zamonaviy mavzularda sahnalashtirilgan spektakllarning 1-Respublika ko'rik-festivali bo'lib o'tgan edi. Shu festival butun respublika teatrlaridagi rassomlarning ijodini namoyon etibgina qolmay, balki ijodiy muloqot yuzasidan keladigan ijodiy yetuklik sari intilishni namoyon etdi. Bu esa teatr rassomlarining ijodini yana ham o'rganish talab qiladigan mavzu ekanligini ko'rsatib berdi.

Moler asari asosida ishlangan "Abdulning nayranglari" Yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor B.Abdurazzoqov bilan hamkorlikda 2007 yilda namoyish etildi. Sh.Abdumalikov uchun Molerning tuyg'ulari "Uchar tabib" spektakli orqali begonamas edi. Bu spektaklda rassom asarga o'ziga xos yondoshdi. Sahnada ikki qavatli boy xonodonning ichki hovlisi, sahna markazida supa va uning atrofida esa voqealar rivoji davom etadi. O'zbekona hovli va boloxonali, ya'ni ikkinchi qavati mavjud uy tomoshabinga shunaqa ishonarli ishlanganki, yog'och ustunlar, duxobadan tikilgan ko'rpa to'shaklar va devorga ilingan so'zana-yu, bedanasi bor to'rqovoqlar beixiyor 20-asr boshlaridagi o'ziga to'q oila hovlisiga kirib kelgandek taassurot qoldiradi.




"Abdulning nayranglari" spektakli eskizi

Aktyorlarning beqasam matosidan tikilgan kostyumlari sahna dekoratsiyasini o‘z-o‘zidan to‘ldirib, bir butunlikni tashkil etadi. Xalqona, etnografik elementlarning o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llay olinganligi spektakl mohiyati va mazmuni kengroq hamda osonroq holda tomoshabinga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.



“Abduning nayranglari” spektakli. Yosh tomoshabinlar teatri



Navro’z bayrami sahna bezagi

Teatr rassomi Shuhrat Abdumalikov talabalik yillaridan keyin bugunga qadar 100 dan ortiq spektakllar va teatrlashtirilgan bayram konserti va shouular uchun sahna bezaklari ishladi.

Teatr rassomi tafakkurida chuqur fikrlovchi, olam ranglarini falsafiy mushohada qiluvchi rangtasvirchi yotadi. Sh.Abdumalikovning rangtasvir asarlarida qadim ilohiyotdagi bashariyat tushunchasi ijodkor mulohazasi bilan mushohada qilinadi. 2006 yildan buyon rassom qadim ikonografiya san'atini musulmon miniatyura san'ati bilan uyg'unlashtirgan holda ko'plab asarlar yaratib kelmoqda. "Samarqand ikonalari", "Qush tili", "Yusuf va uning akalari" kabi seriyali asarlari fikr isbotidir. Zamonaviy tasviriy san'atdagi konseptual yechimga ega instalyatsiyalari hech qaysi tomoshabinni befarq qoldirmaydi. Ularda insoniyatning global muammolari keng tarzda ochib beriladi. "Hukm", "Qomatlar" nomli 2007 yili Toshkent va Moskva shaharlarida namoyish etilgan ko'rgazmalardagi asarlarida ayni muammolar mujassam edi.

Sh.Abdumalikovning sahna uchun ishlagan sahna bezaklari badiiy, psixologik yechimga, yaxlitlik va shartlilikka asoslangan. Bir janr yoki uslubda ishlash bilan chegaralanmaydi. Har bir asarga yondoshishdan avval pesani mukammal o'rganib chiqadi. Shundan so'ng pesani sahnada tasavvur qiladi va turli xil fantaziyalar o'ylay boshlaydi. U fantaziysi boy bo'lish qatorida ana shu fantaziyalar yuksakligi bilan ham ajralib turadi. Rassomning ijodiy dastxati mavjud.

Buxoro shahrida 2015 yili Madaniyat vazirligi va Shvesariya byurosining ko'magida "Ustoz-shogird" bo'lib o'tgan o'quv maktabi yuqoridagi fikrga misol. Ana shu tadbir doirasi yakuniy qismida «Otashkada» spektakli namoyishi Abdullaxon madrasasi hovlisida o'tkazildi. Ko'plab spektakllarni noodatiy tarzda sahnalashtirgan, nafaqat yurtimiz balki, jaxon sahnalarida ham o'z tomoshabiniga ega rejissyor Avliyoquli Xo'jaquliyev bu safar ham katta olqishlarga sazovor spektakl sahnalashtirdi. Dramaturg Nafas Shodmonov inssenirovka, kompozitor va dirijyor Jahongir Shukur musiqaga, O'zbekiston respublikasi san'at arbobi Shuhrat Abdumalikov senografiyasiga mualiiflik qilishdi.



“Otashkada” spektakli. Abdullaxon madrasasi hovlisi

XI-XII asrlarda tariqat olamida yashagan taqvodor, so‘fiy Shayxi San’on haqidagi hikoyat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Hudhud nomli qush tomonidan so‘zlab beriladi. Asarda tariqat ilmi, ilohiyot tushunchasi majoziy shaklda, insoniy tuyg‘ularga bog‘lab tushuntirilgan. Tasavvufiy ta’limotni o‘rganish, o‘zlashtirish har qaysi vaqtida ham doim murakkab bo‘lgan. Undagi e’tiqod tushunchasi komillik bilan bog‘liq. Ma’nан yetuk, komil inson e’tiqodidagi murakkab sinovni shoir bundan bir necha asr oldin mohirona tarzda hayotiy qilib tushuntira olgan. Rejissyor spektaklni musiqiy-plastik shaklda sahnalashtirdi. Bosh qahramon Shayxi San’on rolini xoreograf Vladislav Miretskiy raqs kompozitsiyalarini sahnalashtirish bilan birga ijro ham etdi.



“Otashkada” spektakli. Abdullaxon madrasasi hovlisi

Ochiq hovlining uch tomoni 450 o'rinli tomoshabinga moslashtirildi. Hovli o'rtasi qum bilan qoplangan katta sahma. Qadimiy g'ishtli, koshinli bino fonida 4 tarafi ham narvon shaklida ishlangan 7 ta katta kichik zinalar. Zinalar orasida ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi uzun taxta-ko'priklar aktyorlarning yurishiga mo'ljallangan. Zinalarning yon orqa tomonida xor ijrochilari joylashgan. Zinalar tariqatning bosqichlariga ishora bo'lsa, ularning bir-biriga bog'liqligi ko'priklar orqali ifoda etilgan. Spektakldagi badiiy obrazni yaratishda ko'p vazifali yorituvchi asboblar o'rini foydalanildi. Bu esa sharqona me'morlik bilan spektakl mohiyatining uyg'unlashib, alohida ma'no va mazmun kasb eta olishiga xizmat qildi. Sahna chekkasida ko'lma shaklidagi suv ham borki, tomoshabinning e'tiborini tortmay qolmaydi.



"Otashkada" spektakli. Abdullaxon madrasasi hovlisi

Asarning bosh qahramoni Shayxi San'on narvon shaklidagi zinalarning eng balandidan pastga qarab harakatlanadi. U Tushida ko'rgan Tarso go'zali ishqidan o'zini yo'qotgan holda, zinalardan o'zi erishgan tariqat bosqichining eng yuqori cho'qqisini unutib butxona tomon pastga tushib bormoqda. Zamonaviy yoritgich chiroqlar Shayxi San'oning harakatlari qatori yuz ifodasidagi o'zgarishlarni ham ochib beradi.

Voqealar Shayxi San'onning butxonaga borishi, tushida ko'rgan Tarso go'zalini ko'rib u yerda hushidan ketib qolib ketishi bilan davom etadi.

Spektakldagi obrazlar liboslari sahnaning boshqa detallari kabi Shayxi San'onning ichki olami, tuyg'ularini ifodashga xizmat qiladi. Ommaviy raqs ijrosida tarsolar, qushlar, muridlar obrazini yaratgan har aktyor libosiga alohida yondoshilgan bo'lib, hech biri ikkinchisini aynan takrorlamaganligi bilan e'tiborlidir. Tarsolar, qushlar obrazi soch turmamlari, libosidagi ranglar gammasi va muridlar liboslari rangi, yarim ochiq tana ko'rinishi bir-birini to'ldirib senografik kompozitsianing badiiy yaxlitligini ta'minlaydi.



"Otashkada" spektakli. Abdullaxon madrasasi hovlisi

Sahnani boricha qoplagan qum spektaklning butunlay mazmuni va mohiyatini olib berilishida xizmat qiladi. Tasavvuf olamida tuproq katta ma'noga ega. So'fylar o'zlarini tuproq misol xokisor qila olgandagina ular ma'lum bir bosqichga ko'tariladilar. Spektakl voqealari jarayonida qumning qo'lga olinishi, sochilishida obrazlarning ichki kechinmalari, g'am-alamlari, qiyonoqlari ifodasi mujassamdir. Shayx San'on Tarso qiz aytgan shartlarini bajarar ekan, sahnada zunnorni taqadi, cho'chqani boqadi, muqaddas kitobni yoqadi..., ziyrak tomoshabin buni harakat holatlaridan, musiqa kabi ijro etilgan ma'no kasb etuvchi tovush (monsoro)lardan, sahnada mahorat bilan o'z o'rnida ishlatilgan olov, suv, qum kabi detallardan bilib oladi. Yana shunday joyi ham borki, aylana bo'lib olov yonadi, uning ichida esa bosh qahramon qiyonoqli tuyg'ularini

raqs orqali ko'rsatadi. Suvdan ham o'z o'rnidagi unumli foydalanishadi. Shayx San'onning go'ngga belangan holati o'ta ta'sirchan tarzda sahnadagi suv undan olib sochilgan kumga belanishi orqali ochib berilgan.

Musiqa voqealar rivojini ta'minlab bersa, yangi qo'llanilgan ovoz, ohang chiqaruvchi asboblardagi turli tovushlarda makon, zamon hamohangligini his etish mumkin. Raqs harakatlardagi plastika va ritmda obrazning ruxiy qiyinchiliklarining ifodasididir. Senografiya va kostyumlar uyg'unligi sahnadagi qum, taxtali qurilma, suv, olov va aktyorlar liboslaridagi noodatiy shakliy bichim, rang, qizlar soch turmag'i kabilar spektakldagi vaqt, zamon, va makon masalasiga aniqlik kiritish bilan birga undagi falsafa, mazmun yoritilishida asosiy kuchni egallaydi.




"Otashkada" spektakli. Abdullaxon madrasasi hovlisi

Zamonaviy senografiyaning "medialashuvi", ya'ni yoritish, ovoz, dekoratsiya va liboslar yechimidagi innovatsion texnologiyalar nafaqat tomoshabinlar qiziqishini, balki obrazlarning tomoshabopligrini ta'minlaydi, shu bilan bir qatorda aktyorlar va tomoshabinlarni jonli tarzda jalb qiladigan spektaklning emotsiyal muhitini yaratish va qo'llab-quvvatlashga yordamlashadi.

Abdullaxon madrasasi hovlisida "Ustoz-shogird" o'quv maktabi ijrosida namoyish etilgan "Otashkada" vaqt va makon transformatsiyasining noyob imkoniyatlarini omadli ocha olgan spektakl

sifatida interfaol usulda tadqiqiy, eksperimental, ijodiy texnologiyalarni takomillashtirishda o'zbek zamonaviy teatri rivojida yangi bosqichni yarata oldi.

Zamonaviy senografiyada metaforani qo'llay olishi va spektakl mohiyatini o'zgacha his qila olishi orqali rassom Shuhrat Abdumalikov bugungi o'zbek sahna bezagi, umuman teatr san'ati taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda hissa qo'sha olmoqda. Ijodkordan bundan keyin ham betakror senografiya asarlari kutish bilan bir qatorda o'zbek teatr bezagi san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shishiga ishonch bildirib qolamiz.



"Edip" spektakli. Samarqand viloyat musiqali drama teatri

Rassom spektakllaridagi betakror sahna bezaklari orqali zamon, makon, vaqt tushunchalarini yorqin ochib bergan. Sh.Abdumalikovning sahna bezagini yaratishdagi mahorati uning predmet va detallarni, faktura va ranglarni to'g'ri tanlay olishida ko'rindadi.

Rassom ko'proq tabiiy xom-ashyolardan, qo'lida ishlagan buyumlardan foydalanishni xush ko'radi. Uning bu boradagi mahorati kichik sahnalarda namoyon bo'ladi. Chunki kichik sahnada tomoshabin yaqindan ko'ra olish imkoniga ega. Ana shu ma'noda rassom sahnada antikvar – qo'lida tikilgan, yasalgan va kichik xom-ashyolar kabi detallardan erkin foydalanadi. Tomoshabin yaqin masofada sahnadagi buyumlarning o'ziga xos jilosini his eta oladi.

2015 yilda O'zbekiston Xoreografiya Akademiyasining eski binosida namoyish etilgan "Gugurt ko'targan qizcha" nomli spektaklning liboslari va bezaklarini ishladi. Badiiy raxbar Q.Sagatov, D.Yuldasheva librettosi asosida ishlangan ushbu spektaklda D.Prosolova boshchiligidagi Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari ishtirot etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Shveysariyaning O'zbekistondagi elchixonasi hamkorlik byurosi "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi H.Olimjon nomidagi Samarqand viloyat musiqali drama teatri ijodkorlari bilan birgalikda hamda "Ustoz va shogird" maktabining badiiy rahbari O.Xodjaquliyev tomonidan "Ustoz va shogird" maktabi o'zining ikkinchi loyihasini amalga oshirdi. Sofokl va Seneka asarlari asosida "Edip" spektakli sahnalashtirildi. Bu sahna asarining taqdimoti 2016 yil 30 – sentyabr kuni bo'lib o'tdi. Spektaklda sahnalashtiruvchi rassom O'zbekiston san'at arbobi Shuhrat Abdumalikov, musiqa mualliflari "Omnibus" ansambl va Jahongir Shukur, xoreograf Vladislav Mireskiy. Sofokl va Seneka asarlari O.Xodjaqul tomonidan inssenirovka qilindi va N.Shodmonov tarjimasi asosida sahnalashtirildi.



"Edip" spektakli. Samarqand viloyat musiqali drama teatri

Ko'p yillardan beri o'zbek teatr sahnasida hali "Shoh Edip" asari sahnalashtirilmagan edi. Asar rejissyor O.Xodjaquliyev tajribasi asosida sahnaviy holga keltirildi. Unda taqdiru-azal qarshisida ojiz odam qismatining eng nozik jihatlari, avlodlarga munosabat, kibr va nafs

tajovuzi, o'tmishdagi xato hamda jinoyatlarning g'arazi, uzoq taftish qilishning salbiy oqibatlari, taqdirdan inson qochib qutula olmasligi, chunki bu taqdir odamzod tomonidan emas, ilohiyatdan ekanligi kabi masalalar xususida fikr yuritiladi. Sahna asari senografiyasi chuqur ochib berishni ko'zda tutib, jaxon teatrlarida erishilgan eng ilg'or metodlarni tatbiq etish bilan o'ziga xos yechimlarni namoyon qiladi. Senografiya butun spektakl davomida o'zgarmaydi. Bunda spektakl uzliksiz davom etadigan, har doim bir-biri bilan kesishgan yo'llar ustida qurilgan. Bu yo'llar bir-biriga shunaqangi bog'langanki, har biri o'z voqeasiga, yechimiga ega. Go'yoki asarda aytilganidek "ikki yo'lning bir yo'lga tutashgan" joyida spektakl ham bo'layotganga o'xshaydi. Spektaklda bir xillikdan qochilgan, noan'anaviy xususiyat mujassamlashgan bo'lib, unda raqs, musiqa, plastik harakatlar yetakchilik qiladi. Sahnada musiqalarni chalib beruvchi orkestr yo'q, aksincha aktyorlarning o'zi spektakl davomida ham rol ijro etadi, ham musiqa chaladi. Ular chaladigan musiqa asboblari ham noan'anaviy bo'lib, qozonning qopqog'i, ikki yog'och o'rtasiga tortilgan simlar, kichik tayoqchalar hamda og'iz orqali chiqariladigan turli ovozlardan iborat. Raqlari esa butkul o'zgacha, unda ma'lum bir voqea yo'q, lekin musiqa hamohangligida ijro etiladi. Butun spektakl mana shunday nozik va qiziqarli harakatlar ustida qurilgan. Shu narsani ham alohida aytish joizki, birorta so'z yo'qliki harakatlar asosida qurilmagan bo'lsa, barcha-barchasi plastik harakatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu sahna asarida shunisi qiziqliki ko'p narsa o'xshatishlar asosida ochib berilgan. Masalan, Edipning o'z ko'zini o'yishi jarayonini aktyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Bahrullo Rahimov yuziga oq latta yopib qora rang chaplashi bilan yoki shaharni o'lat ko'lankasi qoplaganda qora kiyim kiygan, sochlari yoyilgan qiz, tinimsiz sahna bo'ylab plastik harakatlar qilishi, bularning bari juda ajoyib. Yana shu narsa diqqatni tortadiki, Iokasta o'lishi jarayonini ijro etgan aktrisa O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mehri Haqimova yelkasiga qizil latta yopdi-yu, so'ng "men o'ldim" deb sahnaning chetiga borib, spektakl ijrosini tomosha qilib o'tirdi. Odatda, spektakl ijrosida aktyorlar o'lishi jarayonida "oh-voh" qilishib yerga yotib olishardi, so'ng parda tushsa yoki kimdir bu o'likni sudrab olib chiqib ketsa, u sahnani tark etardi. Bu

esa mutlaqo o'zgacha ko'rinishda, tomoshabinni fikrlashga undaydigan holat. Asar yechimi kuchli o'ylangan bo'lib, spektakl jarayonida tomoshabin zerikib qolmaydi.⁶

Spektaklda har doimgidek pardal yopilib, dekoratsiya almashib, aktyorlarning sahnadan kulisga kirib-chiqib yuradigan holatlari mutlaqo kuzatilmaydi. Aksincha hamma narsa sahnaning o'zida, hatto tomoshabinlar ham sahnada aktyorlardan ikki metr uzoqlikda o'tirishadi. Tomoshabin sahnaga aktyorlar chiqadigan joydan kiradi. G'ira-shira qorong'u zal, aktyorlar sahnada obrazlarda turishibdi. Yaratilgan o'zgacha sirli muhit sizni befarq qoldirmaydi. Tomoshabin sekin-asta, o'zi bilmagan holda o'tmishga singib boradi va kutulmaganda bir odamning go'yo o'tmish qa'ridan chiqib kelib "Shoh Edip" asari haqida gapirayotganini hamda bu sahnada asar qanday yechim topganini tushuntirayotgan teatr xodimiga duch keladi. U o'z so'zlarini yakunlaydiyu, yana o'tmish qa'riga singib ketadi. Shundan so'ng fojialar tomoshabin ko'z o'ngida yuz beraveradi. Noodatiy ko'rinish va o'zgacha yondoshuv orqali tomoshabinga fojiani boshqacharoq usulda oson yetkazishda albatta rejissyor bilan rassomning ijodihamkorligi natijasi yaqqol ko'rindi. Rassom Sh.Abdumalikov ijodi eksperimentlarga boy. Har bir ijod mahsulida o'ziga xos topilmalari bilan e'tiborni tortadi.

Songi yillarda "Otamdan qolgan dalalar" spektakli Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida namoyish etildi. Stsenografiyasini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shuhrat Abdumalikov ishlagan. Bugungi zamонави stsenografiya sahnada asar mohiyati, spektakl mazmuni ochilishiga xizmat qilishi qatorida aktyor ijrosi uchun qulayliklar ham yaratishni talab etadi. Ilk sahnada yuqorida uylar tushib keladi. Bu har bir uy insoniyat vatani, oilasi va undagi halovati, deya qabul etish mumkin. Bu halovat har bir insonga yuqorida tushadi va sho'rolar hukumati o'rnatishi orqali bu halovat, tinchlik va oilalar misolida ona vatan parokandaligi uylarning yuqoriga ilinib ko'tarilishi orqali ketadi. Sho'ro tuzimi yetkazgan zaxmat va mashaqqat, xo'rlik va taxqirlarda yashab o'tayotgan uch avlod: Jaloliddin ketmon, Surxon Ashraf, Dexqonqul hayot tarzi, turumushi yoritilgan bo'lib, ularga yashashning

⁶ N.G'ofurov "Shox Edip" kultura uz.sayti

manosini anglashiga yo'l qo'ymasligi, kimligini va nima uchun kelganligi haqida bosh qotirishga-da, vaqt qoldirmaydigan darajada ishlatalishi tomoshabinda rahm shafqat tuyg'ularini uyg'otib yuboradi. Sahnadagi charxpalak bu hayot charxpalagi ma'nosida kelgan bo'lib, davr, zamon, makon almashinuvi va shiddatini aniq ifolaydi. Aktyorlar undan spektaklъ davomida ko'plab vazifalar: aylantirish orqali vaqtini, tezroq aylantirganda shiddat va g'ayrat bilan ketayotgan ish jarayonini, yana mehnatda o'tayotgan kunu tunlarni, bulardan tashqarisi esa Dehqonqul kasal bo'lib yotib qolganida kasalxonani ham anglatadi. Charxpalak yuqorisidagi minbar esa juda baland bo'lib, bu sho'rolar hukumuatini anglatadi. Unga bog'langan qizil mato ham shu hukumat ramzidir.

Charxpalak va minbar yonlarida 4 ta qafas misolida qurilmalar esa dastlab sahnaning go'zal, chiroyli manzarasini, kuy qo'shiqlar aytgan tinch va osuda hayotni ifolagan bo'lsa, keyin Dehqonqulning ayoli va onasining og'ir mehnati, azobli hayotini ochib bergen. Keyingi sahnada maktabdagи sinfxonalarida kelgan bo'lsa, oxirgi sahnada esa qamoqdagi azoblanadigan maxsus xonalar misolidagi taassurotni bera olgan. Bir necha funktsiyali ushbu qurilma-konstruktsiyalar shartli bo'lib, barchasiga ma'joziy ma'nolar kiritilgan. Sahnadagi barcha detal harakatlanadi, so'zlaydi. Ularning orqa fonida esa matolar taxlanadi. Oldinida esa paxta uyumlar xirmoni minbardan pasga va zinalar orqali yuqoriga uzatiladi. Sahnada qog'ozdan ishlangan paxtalar teriladi. Tugunlarga solinadi.

Qisqa qilib aytganda, spektakl stsenografiyasi asar mohiyati ochilishida eng boshidan oxiriga qadar aktyorlar bilan harakatlanadi. Bundan ko'rinish turibdiki ushbu sahnaviy yechimda, stsenograf Shuhrat Abdumalikov zamonaviy stsenografiyaning asosiy tendentsiyalariga amal qilgan.

"Momo yer" spektakli. Unda urushdan keyingi davr aks ettirilgan bo'lib, sahnada yog'ochdan yasalgan ikki qavatli qurilma. Uning yuqorisi uyning tomi, qir, tepaliklar, temir yo'li, yo'l kabi vazifalarni o'tadi. Pastiga esa savatlar, bog'joma-tugunlar, kir ilish uchun dorlar ilingan. Markazda esa supa va unda katta bog'lamli mato taxlanib turibdi. To'lg'anoy uch o'g'li va turmush o'rtog'i bilan yerda ishlab, mehnat

qilish orqali baxli hayot kechiradi. Noming o'chgur urush ularning hayotini izdan chiqaradi. Urushga ketgan o'g'illari va turmush o'rtog'i o'rniga dalada o'zi ishlaydi. Supadagi aylana katta mato yer vazifasini o'taydi. Ushbu matoga turli kiyimlar tikilgan bo'lib, bu kiyimlar orqali rassom yerning kattaligi, bu yer hammaga yetishi haqidagi falsafa kiritgan. To'g'anoy ham o'z monologida: "Senga nima kerak, yermi? Istagingcha ol", deydi. Bunda rassom falsafasi orqali dastldabki mato yoyilishida To'g'anoy farzandlari bilan yerni bo'lib, birga ishlab mehnat qilgan bo'lsa, urush davrida bir o'zi ushbu matoni kelini bilan birga tortadiki, bu orqali kelini ikkkisi dalada mehnat qilganiga ishoradir. Qor xat rassom va rejissyor tandemida rasm solinmagan katta kichik qora ramkalarni o'z mavridi bilan olib kirilishi orqali ifodalangan. Har birida katta qayg'u har turli tarzda ifodalangan. Teatr rassomi Shuhrat Abdumalikov o'z fikrlarini ramziy belgilarga mahorat bilan joylay olganki, tomoshabin beixtiyor bularni tushunadi, sahnadagi kechmischlarga ishonadi. Aslida stsenograf vazifasi ham aynan mana shunda. Sahngaviy asar mazmumuni oson, yengil tarzda singishiga ko'mak berishdir.




"Mohituron" spektakli eskizi

2018 yil teatr rassomi Sh.Abdumalikov uchun barakali kechdi. Shu yili teatr rassomlarining xalqaro "ARTSSENOFEST" ko'rgazma-festivalini, xalqaro "ARTSIMPOZIUM" ko'rgazmasini tashkil etdi. Unda

10 dan ortiq xorij mamlakatlarning teatr rassomlari, libos rassomlari, san'atshunoslari ishtirok etishdi.



“Nodon” spektakli maketi



“Otamdan qolgan dalalar” spektakli eskizi

2018 yil O‘zbekiston Milliy Qo‘g‘irchoq teatrida S.Shvarsning asari asosida ishlangan “Soya” spektakli senografiyasini ishladi. Rassomning rejissyor D.Yuldasheva bilan tandem muvaffaqiyatli chiqdi. Ushbu spektakl’ o‘sha yili Moskvada bo‘lib o‘tgan 9-Xalqaro Obrazsov nomidagi qo‘g‘irchoqlar teatri festivalini ochib berdi.

2019 yil Sirdaryo teatrida H.Rasul asari asosida qoraqalpoq (rej.:Markaboy) “Mohituron”, “Otamdan qolgan dalalar” (rej.:N.Ismoilova) spektakllariga bir-birini takrorlamaydigan o‘ziga xos senografiyalar ishladi. Shu yili rassom

Qozog'istonda Fonvizinning "Nodon" (rej.: N. Asanbekov) spektaklida senografiya ishladi va ushbu ish o'sha yerda bo'lib o'tgan Xalqaro teatr festivalining "Eng yaxshi senograf" nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.



"Nodon" spektakli maketi




"Jaloliddin Manguberdi" spektakli maketi

Shu yili E.A'zam asari asosida "Tango qayiq" badiiy filmida postanovkachi rassom sifatida ishladi. Undan oldin esa YUNESKO homiyligida AQShning "Discovery" kanali yirik astronom olim, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyati to'g'risida (yosh

rej.:B.Yo'idoshev) "Al Tohur yulduzi" nomli tarixiy, ilmiy-ommabop filmiga O'zbekistonning tarixiy shaharlarida davrning ruhi va muhitini his ettiruvchi dekoratsiya va pavilonlar ishlagan edi. Filmda, yirik davlat arbobi Amir Temur bilan birga yana bir qancha tarixiy shaxslar obrazlari jonlantirilgan. Ushbu film 16 davlatda suratga olingan bo'lib, qahramonlari uchun liboslar o'zbek va chet el libos dizaynerlari hamkorlikda tarixiy ma'lumotlarga tayangan holda ishlab chiqildi.

2020 yil Milliy akademik drama teatrida rejissyor A.Xolmo'minov sahnalashtirgan "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy dramasiga o'ziga xos senografiya ishladi. Rassomning ushbu ishi makon va zamon masalasini sahnada naqadar aniq his eta olishini, tarixiy davrga shakl, rang, har bir sahnadagi detal misolida chuqur kira olganligi ko'rsatib berdi.




"Jaloliddin Manguberdi" spektakli

Xulosa o'rnida aytish kerakki, senograf Sh.Abdumalikovning "Amir Temur va To'xtamishxon", "Amir Temur", "Chingizxonning oq buluti", "Jaloliddin Manguberdi" kabi tarixiy spektakllar uchun ishlagan sahna bezaklarida uning senografiyaning yangi usullari, oqim va yo'nalishlarida izlanishlar olib borganligi, "Uchar tabib", "Oppoq, oppoq qora laylak", "Qobil va Hobil" kabi klassik mavzudagi spektakllar uchun ishlagan


sahna bezaklarida esa Yevropa va jahon sahna bezaklaridagi sifatlarni milliylashtirgan holda o'zlashtirgani ko'rindi. "Behili tushlar", "Alpomishning qaytishi", "Ayolg'u" kabi follar-etnografik yo'nalishdagi sahna bezaklarida qadimgi tomosha san'ati an'analaridan unumli foydalangan holda ramzlar, timsollar bilan boyitilgan senografiyani ko'ramiz. Rassom "Ajdodlar raqsi", "Sohil yoqalab chopayotgan olapar", "Taroslik yovuz" kabi zamonaviy mavzudagi spektakllar uchun avangard, absurd uslublaridan kerakli jihatlarini olib, yangicha ko'rinishdagi senografiyalar ishladi. "Otashkada", "Shoh Edip" asarlariga ishlangan senografiyasi bilan esa rassom ijodkor mahorati chegarasi katta mashtabga ega bo'lishini yaqqol ko'rsatib bera oldi. "Tango qayiq", "Al Tohur yulduzi" kabi filmlardagi postanovkachi rassom sifatida iste'dod qirrasini namoyon etdi. Bugun ham Shuhrat Abdumalikov izlanishda. Yana ko'plab tomoshabinlarni hayratltirish yo'lida ijod bilan band.




"To'maris" spektakliga maket



“Adi-badidan chiqqan janjal” spektali maketi (Gol'doni)
Qirg'iziston




“Tun albatta o’tadi “ spektakli maketi (Pirandello. Milliy teatr)




“Tohir va Zuhra” spektakli maketi




“Oy onam – qaynonam” spektakli maketi



“Oy onam – qaynonam” spektakli maketi




“Oblomov” spektakli maketi (Ilhom teatri)



“To’maris” spektakliga loyiha maketi




“Sohil yoqalab chopayotgan olapar” spektakli eskizi




“O'qilmagan maktublar” spektakli eskizi




“Teatr pag'onalari”




“Oskar va pushti xonim” spektakli. Yosh tomoshabinlar teatri




“Manguberdi” spektakli eskizi. Milliy akademik teatri. 2011y.



“Figaro” spektakli eskizi (Bomarshe) Rus Akademik teatri




“Figaro” spektakli eskizi (Bomarshe) Rus Akademik teatri



“O’qilmagan maktublar” spektakli maketi



“Jinni” spektakligiga eskiz (Muqimiy teatri)




“Quyoshni sen uyg’otasan” spektakli. Milliy Akademik teatri



Samandar myuzikliga senografiya



Myuziklga senografiya




Myuziklga senografiya




“Soya” (E.Shvarts) Qo’g’irchoq teatri



“Soya” (E.Shvarts) Qo’g’irchoq teatri



“Gugut ko’targan qizcha” spektakli. O’zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasi



“Gugut ko’targan qizcha” spektakli. O’zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasi (eski binosi)

Annotatsiya

Ushbu o'quv qo'llanma respublikaning taniqli teatr va dekoratsiya san'ati ustalaridan biri - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Shuhrat Abdumalikovning ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan. Muallif senografning ijodiy biografiyasining asosiy bosqichlarini mustaqillik yillarda O'zbekistonning yetakchi teatrlarida namoyish etilgan spektakllar misolida o'rgangan.

Аннотация

Данное учебно-методическое пособие посвящено творческой деятельности одного из известных мастеров театрально-декорационного искусства республики – заслуженного деятеля искусств Узбекистана Шухрата Абдумаликова. Автор рассматривает основные этапы творческой биографии сценографа на примере спектаклей, поставленных в ведущих театрах Узбекистана за годы независимости.

Annotation

This training manual is devoted to the creative activity of one of the famous masters of theatrical and decorative art of the republic - Honored Art Worker of Uzbekistan Shukhrat Abdumalikov. The author examines the main stages of the creative biography of a set designer using the example of performances staged in leading theaters of Uzbekistan during the years of independence.

INOBAT IMANKULOVA

SENOGRAFIYA VA LIBOS TARIXI

o‘quv-uslubiy qo‘llanma

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «Fan ziyosi» nashriyotiga
2021 yil 14 fevralda berilgan 308197041-tonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 30 uy.

Offset qog‘oz. Bichimi 60x84/16
Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tabog‘i - 4
Buyurtma № 7921788. Adadi 100 nusxada
«Munis design group» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze, 17-A uy.